

## DORIVOR O‘SIMLIKLARNI O‘RGANISHNING AHAMIYATI

**Sobirova Mardona Alisher qizi**  
**Urganch davlat universiteti talabasi**

**Annotatsiya:** Insonlar qadim zamonlardan buyon turli xil giyohlarning davolovchi va quvvat beruvchi xususiyatlarini bilishgan va bu bilimlarini turli xil xastaliklarni davolashda ishlatishgan. Insonning xayoti nabobat va xayvonot olamiga mustahkam bog‘langan. O‘zining rizqi, yemak-ichmagini u shu olamdan oladi, biror kasallikka chalinganda xam, tabiatdan shifo izlab undan dori-darmon topadi. Ushbu maqolada dorivor o‘simliklardan foydalanishning ahamiyati va ulardan tabobatda foydalanishni keng o‘rganish haqida ma‘lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** dorivor o‘simliklar, xalq tabobati, tip qonunlari, saydana,

**Аннотация:** С древних времен люди знали целебные и тонизирующие свойства различных трав и использовали эти знания при лечении различных заболеваний. Жизнь человека прочно связана с миром животных и растений. Он получает пропитание, еду и питье из этого мира, а когда заболевает, ищет исцеления у природы и находит у нее лекарство. В данной статье представлена информация о важности использования лекарственных растений и обширном изучении их применения в медицине.

**Ключевые слова:** лекарственные растения, народная медицина, типовые законы, сайдана,

**Abstract:** Since ancient times, people have known the healing and energizing properties of various herbs and used this knowledge in the treatment of various diseases. Human life is firmly connected to the world of animals and plants. He gets his sustenance, food and drink from this world, and when he gets sick, he seeks healing from nature and finds medicine from it. This article provides information on the importance of using medicinal plants and the extensive study of their use in medicine.

**Key words:** medicinal plants, folk medicine, type laws, saydana,

**Kirish:** Qadim-qadimdan insoniyat o‘simliklardan shifobaxsh vosita sifatida foydalanib keladi. Foydali o‘simliklar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar avloddan-avlodga, qabiladan-qabilaga faqat og‘zaki tarqalgan. Davlatlar o‘rtasida savdo-sotiq va boshqa munosabatlar o‘rnatilgandan so‘ng, ana shu davlatlarda foydali o‘simliklar turlari ko‘paya bordi. Yozuv paydo bo‘lganidan keyin foydali shifobaxsh o‘simliklar

to‘g‘risidagi ma‘lumotlar yozma ravishda tarqala boshladi. Qazilmalarda Suriya shoxi Assurbanipal (Sardana‘al, eramizdan avvalgi 668 yil) kutubxonasidagi so‘olga mixxat bilan yozilgan 22000 jadval to‘ilgan, shundan 33 tasida dorivor mahsulotlar qayd qilingan. Hatto o‘sha davrda Suriyada dorivor o‘simliklar ekiladigan maydonlar ham bo‘lgan. Misrda esa shifobaxsh o‘simliklar bundan ham ilgari ekila boshlangan. Masalan, eramizdan 2000 yil avval Misrda kanakunjut ekilgan. Hozirga qadar saqlanib qolgan dorivor o‘simliklar haqidagi ma‘lumotlar asosan qadimiy yunon adabiyotlarida uchraydi. Yunonlar o‘zlarida yetishtiriladigan dorivor o‘simliklardan tashqari Misr, Eron va boshqa Osiyo mamlakatlaridan keltirilgan dorivor mahsulotlardan ham foydalanishgan.

**Asosiy qism:** Hozirgi paytda shifobaxsh o‘simliklardan tayyorlangan dori-darmonlar keng miqyosda qo‘llanilib kelinmoqda. Ruhiy xastaliklarni davolashda dorivor o‘simliklarning 18 turidan, saratonni davolashda 7 turidan, qandli diabetda 24 turidan, ateroskleroz, yurak-qon tomirlari sklerozida 25 turidan, oshqozon xastaliklarida 10 turidan, qon bosimi xastaliklarida 22 turidan keng foydalanilmokda. Bundan tashqari, kashandalik va alkogolizmning oldini olishda, qondagi xolesterinni muvofiqlashtirib turishda ham shifobaxsh giyohlardan tayyorlangan dori-darmonlar yordam bermoqda. Meva, sabzavot-poliz va ziravor o‘simliklar kishi organizmini vitaminlar, uglevodlar, organik kislotalar, mineral tuzlar va boshqa muhim biologik faol moddalar bilan tahminlashda asosiy, bahzan yagona manba. Sabzavot, mevalar, ayniqsa ziravor o‘simliklar mehda shirasining ajralishini kuchaytiradi, ishtaha ochadi va ovqat hazm bo‘lishini yaxshilaydi. Natijada organizmdagi modda almashinuviga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Lekin bundan xulosa qilib, faqat o‘simlik mahsulotlari bilan ovqatlanib kun ko‘rish mumkin, degan xulosaga kelinsa to‘g‘ri bo‘lmaydi. Sababi o‘simlik mahsuloti qanchalik foydali bo‘lmasin, ularni ko‘pchiligini tarkibida oqsil va moy kam saqlangani uchun birgina o‘simliklarning o‘zi inson organizmini yuqori sifatli, kerakli ovqat moddasi bilan tahminlay olmaydi. Faqat o‘simlik va hayvonlar mahsulotlarining kerakli miqdordagi aralashmasidan tashkil topgan ovqat ancha foydali bo‘lib, insonni sog‘lom bo‘lib o‘shini tahminlay oladi. Foydali o‘simliklarning asosiy ahamiyati kasallikni davolash emas. Ular birinchi galda inson va hayvon organizmiga faqat o‘simlik mahsuloti bilan kiradigan biologik faol moddalar (vitaminlar, organik kislotalar va boshqalar) yetishmasligidan kelib chiqadigan kasalliklarni oldini olishda katta ahamiyatga egadirlar. Bu moddalar yuqorida aytilganidek organizmga ovqat bilan birga kirib, ba‘zi jarayonlarni kuchaytiradi, modda almashinuviga kuchli

ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda tirik organizmga turli biologik ta'sir ko'rsatadi. O'simliklar dorivor vosita sifatida qo'llanilishi tarixi insoniyat tarixiga teng va u bilan chambarchas bog'liq. Er yuzidagi aholi keskin ko'payib borishi, ilm fanni rivojlanishi, sanoat katta yutuqlari va uning o'sib borishi aholini ko'proq o'simlik olamiga va undan olinadigan mahsulotlarga bo'ladigan ehtiyojini oshib borishiga sabab bo'lmoqda. 6 O'simliklarni har xil turlarini aniqlash, ishlatilayotgan o'simliklarni areallarini va zahiralarini aniqlab terib, yig'ib olish uchun tavsiyalar berish fani resursshunoslik fani deb yuritiladi. Resursshunoslik – fransuz so'zi bo'lib, zahira (zapas) ma'nosini anglatadi. Dorivor o'simliklarni o'rganish, ularni foydali xossalarini aniqlash botanik - sistematiklar va geobotaniklar tomonidan olib borilgan. Asta sekin, dorivor yoki foydali o'simliklarni o'rganish rivojlana borib, botanikani mustaqil bo'limi – “Resursshunoslik” hosil bo'lgan. Geobotanika, botanika fanini bir tarmog'i bo'lib o'simliklarni soobustvasini (jamoasini) –fitotsinozlarni tuzilishi, tarqalishi, tarkibi va er, ob-havo va boshqa sharoitlar bilan bog'liqligini o'rganadi.

**Xalq tabobatida qo'llanadigan o'simliklar ichidan kelajagi istiqbolli dorivor o'simliklarni izlab topish.** Hammaga ma'lumki xalq tabobati (xalq va an'anaviy tibbiyot)ning asosiy dorivor vositalarini dorivor o'simliklar tashkil qiladi. Insonlar qadim zamonlardan beri o'simliklardan dorivor vosita sifatida foydalanib kelganlar. Chunki ular o'z atrofidagi tabiatda o'zlariga zarur bo'lgan ovqat, ichadigan suvni qidirib topganlaridek, tinchlik bermayotgan kasalliklariga davo qidirishlari, ularning tabiiy talablari bo'lgai. Shuning uchun inson atrofini o'rab turgan o'simliklar dunyosi uning kasalliklarini davolashda asrlar davomida birinchi va eng oson topiladigan birdan-bir yagona shifobaxsh vositasi bo'lgan. Masalan, qadimgi xaqlar tabobatida ham dorivor vosita sifatida avvalo o'simliklardan, so'ngra hayvon mahsulotlari va mineral moddalardan foydalanganlar. «Bu o'rinda, chamasi jamoa qozonlarida inson organizmiga (kasal va sog'lom holatida) tonuslovchi, mustahkamlovchi, tozalovchi va kuch beruvchi ta'sirlarni ko'rsatish maqsadida ovqatlarni tayyorlashda o'simliklardan kshg foydalangan tajribasi o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lsa kerak». Demak «Dorivor o'simliklarni ishlatish butunlay insoniyat jamoasining tajribasi bo'lgan», shuning uchun «tibbiyot boshlanishida hammani, har bir kishining vazifasi bo'lgan, faqatgina ko'p bo'lmagan qobiliyatlilarni kasbi bo'lgan". Insoniyat madaniyatining eng qadimgi yozma yodgorliklarining ko'rsatishicha inson tomonidan dorivor vosita sifatida o'simliklardan foydalanish tarixi juda qadimiy va albatta yozuv paydo bo'lishdan oldin boshlangan. Shuning



uchun ham inson o‘zini-o‘zi o‘simlik yordamida davolagan vaqtini aniqlash qiyin. Chamasi u ibtidoiy odam bilan tengdir. Ehtimol er yuzida inson iaydo bo‘lishidan ancha burun ba‘zi o‘simliklarni shifobaxsh xususiyatlaridan hayvonlar «foydalanganlardir». Haqiqatdan ham ba‘zi farmakologik faol ta’sirga ega bo‘lgan o‘simliklarni hayvonlar iste’mol qilgan hollar tarixda ma’lumdir. Assuriyada topilgan eng qadimgi -sopolga bitilgan birinchi yozma manbalarda xam dorivor o‘simliklar to‘g‘risida ma’lumotlar bo‘lgan. Assuriyalilar dorivor o‘simliklarning shifobaxsh xususiyatlarini yaxshi bilganlar, ulardan davolanish maqsadida foydalanganlar. Assuriyalilar dorivor o‘simliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z navbatida asosan shumerlar va bobilliklardan olganlar, keyinchalik bu ma’lumotlar assuriyaliklardan misrliklarga o‘tgan. Eramizdan -miloddan 4000 yil avval misrliklar - Misrning dorivor o‘simliklari mantiqiy tasvirini tushirganlar. Ovrupada qadimiy tibbiyot sifatida yunon tibbiyotini qabul qilshgan. U dunyo tibbiyoti rivojiga o‘zining juda katta ta’sirini ko‘rsatgan va insoniyatga Buqrot, Dioskorid va boshqalar kabi buyuk namoyandalarni bergan. Yunonlarning bu sohadagi muvaffaqiyatlari rimliklar tomonidan, so‘ngra sharqda - Suriya va Eronda qabul qilingan. Bu erda yunon kitoblari arab tiliga tarjima qilinmadi, ulardan nusxalar ko‘chiriladi, qayta ishlab chiqiladi va ularga ilovalar yoziladi. Ovrupa tibbiyoti esa o‘z navbatida Misr, Vavilon va Assuriyaning eng qadimgi ananaviy madaniyati bilan chambarchas bog‘langan va shular asosida fan taraqqiy etgan Gretsiya sivilizatsiyasining samarasidir. Bu borada Ovrupa tibbiyoti yuqorida aytib o‘tilgan davlatlarni an’anaviy madaniyati ta’sirida taraqqiy etgan arab tibbiyoti kabidir. Hozirgi O‘rta Osiyo va Qozog‘iston respublikalari territoriyasida joylashgan davlatlarning tibbiyoti xam, ularni arablar bosib olgaidan so‘ng shu yuqorida zikr etilgan yutuqlar va an’analar asosida hamda ta’sirida taraqqiy qilgan. Shuning uchun ham Ovrupada Abu Ali Ibi Sinoni arab tibbiyot maktabining buyuk namoyandasi deb hisoblaydilar. Insonlar avvalo o‘z atrofida o‘sadigan o‘simliklardan dorivor vosita sifatida foydalanganlar. Shuning uchun xar qaysi erning dorivor o‘simliklari bo‘lgan. Uzoq vaqtlar davomida bu dorivor o‘simliklar xayot sinovidan o‘tganlar, saralanganlar va eng samaralilari to‘g‘risidagi ma’lumotlar shu er (shu xudud)ning o‘zida og‘zaki avloddan avlodga o‘tgan. Qachonki xalqlar orasida aloqalar tuzilib, mollar almashina boshlangandan so‘ng dorivor o‘simliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham bir xalqdan ikkinchisiga o‘ta boshlaydi. Bu esa har bir erning dorivor o‘simliklar assortimentini xam erli flora turlari, ham chetdan kelgan o‘simliklar hisobiga boyishga olib keladi. idagi sabablar bilan tushuntirish mumkin:

1. Uzoq vaqt davomida uzluksiz ravishda har qanday sintez yo‘li bilan olingan (sintetik) dorivor preparatlarni iste‘mol qilish ayrim organlar funksiyasi (bajaradigan ishi) va tuzilishini turli buzilishlarga olib keladigan manbaa ekanligi aniq bo‘lib qoldi. Masalan, g‘arbda ayrim uyqu dorilarni qabul qilish bilan bog‘liq bo‘lgan nogiron bolalarning tug‘ilishi, ba‘zi dorilarning rak kasalligi sababchisi bo‘lishi (konserogenligi), uzoq vaqt davomida antibiotiklarni qabul qilish natijasida kelib chiqqan mikoz kasalliklari, devinkan preparatini ko‘p qabul qilish natijasidagi jinsiy ojizlik va boshqalar sintetik dorivor preparatlarni sistematik ravishda ko‘p qabul qilishning asoratlaridandir.

2. O‘simliklardan tayyorlangan Galen, yangi Galen va boshqa o‘simliklarning yig‘indi dorivor preparatlari qabul qilinganda organizmga shifobaxsh ta‘sirini sof xoldagi yolg‘iz bitta modda emas, balki mazkur erituvchida erib, o‘simlikdai ajralib chiqqan biologik faol moddalar (asosiy ta‘sir etuvchi va u bilan birga uchraydigan yo‘ldosh moddalar) yig‘indisi kompleks ta‘sir ko‘rsatadi. Bu yo‘ldosh moddalar asosiy ta‘sir etuvchi moddaning ta‘sir kuchini oshirish yoki cho‘zishi, yoxud suvda erishini kuchaytirib, uni organizmga so‘rilishini, demak ta‘sir qilishini tezlatishi mumkin, bazan esa, asosiy ta‘sir etuvchi moddalarni zaxarli kuchini pasaytiradi. Bulardan tashqari, o‘simliklardan yig‘indi va tozalangan yangi Galen preparatlarini olish ancha oddiy, maxsus va murakkab texnologik uskunalarni talab qilmaydi va shuning uchun toza, yagona bir moddani ajratib olishdan ko‘ra iqtisodiy jihatdai ancha arzon va qulaydir.

3. Bu masalada kuyidagi vaziyatlarning ahamiyati katta va ular hisobga olinishi shart. Dorivor o‘simliklar insoniyat tarixini boshidan boshlab ular tarafidan shifobaxsh vosita sifatida ko‘llanilib keladi. Insonlar o‘simliklarning davolash xususiyatlariga o‘rganib qolganlar va ishonadilar, zarur bo‘lgan paytlarda ularning yordamidan foydalanganlar. Bulardan tashqari, dorivor o‘simliklar aholi yashaydigan joylarda, insonlar atrofida o‘sadi, ularni yig‘ib olish, quritish oson va hammaning qo‘lidan keladi. Ulardan dori tayyorlash qiyin emas va uy sharoitida ham bajarsa bo‘ladi. Eng muhimi, ko‘pchilik dorivor o‘simliklar zaharli emas, ulardan tayyorlangan shifobaxsh preparatlarni uzoq vaqt davomida surunkali kasalliklarni davolash uchun iste‘mol qilsa bo‘ladi. Shunda ham shifobaxsh o‘simliklarni noxush, keraksiz, qo‘shimcha va allergik ta‘sirlari kuzatilmaydi. Butun dunyo xalqlarining an‘anaviy tibbiyotida qo‘llaniladigan dorivor o‘simliklar shu kunlarda ham ko‘pchilik olimlariig jiddiy e‘tiborini o‘ziga tortmokda. Chunki,

ularni har taraflama va chuqur o‘rganish ko‘pincha yaxshi natijalarga olib kelmoqda.

Yangi biologik faol moddalar ajratib olish va ular asosida yangi, samarali fitopreparatlar yaratish yo‘lga ko‘yilmokda yoki ma‘lum bo‘lgan biologik faol moddalarning yangi manbaalari topilmoqda. Pirovardida tibbiyot amaliyoti yangi dorivor preparatlarga ega bo‘lmokda. Xalq tabobatida qo‘llaniladigan dorivor o‘simliklarning farmakologik tasiri o‘rganilganda ularning hammasi o‘zini tabobatda ishlatilishini tasdiklaydi deyish qiyin va albatta xato bo‘ladi. Lekin o‘tkazilgan farmakologik, keyinchalik klinik sharoitidagi o‘rganishlar an’anaviy tibbiyotda ishlatiladigai dorivor o‘simliklarning ko‘nchiligi o‘zlarini ishlatishlarini tajribalarda tasdiqlashlarini ko‘rsatmoqda. N.R.Farivort, O.Lkrsle va boshqalarning (39) tekshirishlari shunday natijalarga olib keldi. Mualliflar ilmiy tibbiyotda qo‘llaniladigan 119ta fitopreparatlar (o‘simliklardan olingan) ni ta’siri yoki ishlatilishini ularning olinadigan manbalari - o‘simlik-larini an’anaviy tibbiyotda qo‘llanishi bilan solishtirib ko‘rishgan. Natijada 119 fitopreparatlardan 78 (65,54 %) tasini hozirgi zamon ilmiy tibbiyotida qo‘llanishi va ularni olish manbalari bo‘lgan dorivor o‘simliklarni an’anaviy tibbiyotda ishlatilishi bir xil ekanligini kuzatganlar. Misol tariqasida quyidagi preparatlarni va ularni olingan maibalari - o‘simliklarini keltirish mumkin: bahorgi adonidan -adonizid; belladonadan - atropin; ko‘knoridan -kodein, morfin -papaverin; kuzgi savrinjondan -kolxitsin; may marvaridguldan -konvallyatoksin; kulrang rauvolfiyadan -rezerpin; ilon rauvolfiyadan - rezerpin; qizil angishvonaguldan -digitalin va gitalin; ipekakuanadan —emetin; qalqonsimon podofillumdan -podofillotoksi; oddiy qizilmiyadai -glitsirrizin; qora mingdevonadan -giossiamin;tishli kelladan -kellin; katta kelladan -ksantotoksin; Ledger sinxonasi (xin daraxti)dan -xinin; oq toldan -salitsin; o‘tkirbarg sano va torbarg sanolardan -A va V sennozidlar; oddiy silibumdan -silimarin; shokolad daraxtidan - teobramin; choydan -teofillin; dorivor valerianadan -valepotreatlar; kichik bo‘riguldan - vinkamin va boshqalar. Yuqorida keltirilgan dalillar ilmiy tibbiyot amaliyotida qo‘llash uchun yangi samarali dorivor preparatlar yaratishda an’anaviy tibbiyotni boy meroslarini o‘rganishni qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini yaqqol ko‘rsatadi.



### Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.O‘zbekiston florasini boyligi va xilma-xilligi. Dorivor o‘simliklar resursshunosligi to‘g‘risida tushuncha va uning vazifalari. Geobotanik va resursshunoslik terminlari (A.YA.Ibragimov).
- 2.O‘zbekiston dorivor o‘simliklarning hom ashyo bazasi. O‘zbekistonda yovvoyi holda o‘sadigan va etishtiriladigan dorivor o‘simliklar. Yangi istiqbolli o‘simliklarni izlab topish usullari (X.M.Komilov).
- 3.O‘simliklar jamoasi, ularning dengiz sathidan joylashgan erlari balandligiga qarab bo‘linishi (poyasnost), tarixiy rayonlar va guruhlar bog‘liqligi (F.F.Urmanova).
4. Dorivor o‘simliklarni ko‘plab o‘sadigan joylarni izlab topish, ularni xaritaga belgilash, zahirasini, hosildorligini va tiklanish davrini, yillik yig‘ish miqdorini rejalash (A.YA.Ibragimov).
- 5.Dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish va ularning resurslaridan oqilona foydalanish. O‘zbekiston tabiiy ko‘riqona fondi (X.M.Komilov).
- 6.Dorivor o‘simliklarni hom ashyosini tayyorlash asoslari (omillar) (F.F.O‘rmanova).

---

# Research Science and Innovation House